

FAN
OLIMPIADALARI
MARKAZI





FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

Iste'dodlarni kashfetamiz!

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI HUZURIDAGI
FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

**2025-2026-O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA
ASOSIY OLIMPIADANING IKKINCHI TUMAN (SHAHAR) BOSQICHI**

TARIX (10-sinf)

FANIDAN

TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi

Imzo

Ushbu test topshiriqlari kitobi 30 ta (1–30) yopiq turdagi test topshiriqlaridan iborat.
Har bir topshiriq uchun ajratilgan ball savol kitobida ko'rsatilgan.
Topshiriqlar yopiq turdagi bo'lib, ularda A, B, C va D javob variantlari berilgan.
Ishtirokchi har bir topshiriq uchun faqat bitta to'g'ri javobni tanlashi va javoblar varaqasida mos keluvchi doirachani to'liq bo'yashi kerak.

Ajratilgan vaqt: 60 daqiqa
Savollar soni: 30 ta
Maksimal ball: 50 ball

Ushbu savollar kitobi 4 sahifadan iborat

Fan olimpiadalari markazi
rasmiy telegram sahifasi.
@Fan_olimpiadalari_M

Olimpiada topshiriqlari
yechimlari ushbu telegram
kanalda e'lon qilib boriladi.



© Fan olimpiadalari markazi, 2025

1. [0,9 ball] 395-yili Rim imperiyasi G'arbiy va Sharqiy qismlarga bo'linib ketdi. Shundan Sharqiy qismga qaysi hududlar kirgan?

- A) Bolqon yarimoroli, Kichik Osiyo va Misr
- B) Italiya, Yevropa va Shimoliy Afrikadagi vilo yatlar
- C) Bolqon yarimoroli, Italiya, Yevropa
- D) Kichik Osiyo, Iroq va Afrika

2. [0,9 ball] "Yunonlar ozodligi Xeroniya ostonasida halok bo'lganlar bilan birgalikda dafn qilindi". Ushbu jumla muallifini toping.

- A) Geraklit
- B) Diogen
- C) Demosfen
- D) Gerodot

3. [0,9 ball] Buxoro xonligida harbiy sohada eng yuqori darajadagi vazir ko'p hollarda qanday atalgan?

- A) Qo'shbegi
- B) Qorovulbegi
- C) Lashkar to'pchiboshisi
- D) Ko'kaldosh

4. [0,9 ball] Amir Temurning Hindistonga qilgan yurishi haqida to'g'ri berilgan ma'lumotni aniqlang.

- A) Hindistonga yurish 1388-1389-yillarda sodir bo'lgan.
- B) Amir Temur qo'shini Hindistonga yurish vaqtida 102 ming nafar askardan iborat bo'lgan.
- C) Sohibqironni Hindistonga yurishi 11 oy davom etgan.
- D) Amir Temurdan mag'lubiyatga uchragan Dehli sultoni Ibrohim Lo'diy Misrga qochib ketadi.

5. [0,9 ball] Selenga daryosidan Irtishgacha bo'lgan yerlarni Chingizxon qachon va qaysi o'g'liga bergan edi?

- A) 1208-yil Chig'atoyga
- B) 1207-yil Jo'chiga
- C) 1210-yil O'qtoygga
- D) 1225-yil Tuluga

6. [0,9 ball] Sayfiddin Qutuz tog'asining o'limidan so'ng qaysi davlatning qul bozorida sotib yuboriladi?

- A) Misr
- B) Iroq
- C) Suriya
- D) Eron

7. [0,9 ball] Yaponiyada an'anaviy yapon teatri – kabuki qachon paydo bo'lgan edi?

- A) XVII asrda
- B) XVI asrda
- C) XIX asrda
- D) XVIII asrda

8. [0,9 ball] Quyidagi Lotin Amerikasi davlatlaridan qaysi biri eng avval mustaqillikka erishgan edi?

- A) Buyuk Kolumbiya
- B) Paragvay
- C) Meksika
- D) Boliviya

9. [0,9 ball] 1858-yili Hindiston Buyuk Britaniya mulki deb e'lon qilindi. Mustamlakachilar ba'zi islohotlarni o'tkazishga majbur bo'ldi. Ushbu islohotlarga to'g'ri kelmaydigan javobni toping.

- A) Yer egalarining soliqlarni oshirishi taqiqlab qo'ydi.
- B) Mahalliy rojalarning o'z yerlariga egalik huquqi daxlsiz deb e'lon qilindi.
- C) "Ost Indiya" kompaniyasi o'z mavqeyini mustahkamlab oldi.
- D) Hindistonni boshqarish Britaniya ma'murlari qo'liga o'tdi.

10. [0,9 ball] Quyidagilardan Kushon davlati yodgorliklari hisoblangan aholi manzilgohlari to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

- A) Bityan, Oybo'yirqal'a
- B) Ershi, Qal'aliqir
- C) Ko'zaliqir, Dalvarzintepa
- D) Eski Termiz, Ayritom

11. [1,5 ball] Quyidagi voqealardan qaysi biri Saljuqiylar davlatini zaiflashtirishga olib keladi? (XIII asrda)

- A) Usmonli turklar bilan jang
- B) Vizantiya bosqini
- C) Qurg'oqchilik natijasida iqtisodni zavolga yuz tutishi
- D) Mo'g'ullar bosqini

12. [1,5 ball] Amir Temur taxtga o'tirgach, Keshga kelib dastlab qanday lavozimlarni tayinlaydi?

1. devonbegi; 2. tuman boshlig'i; 3. vazir; 4. mingboshi; 5. qo'shbegi.

- A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4
C) 3, 4, 5 D) 1, 3, 5

13. [1,5 ball] Umaviylar xalifaligi davrida Vizantiya imperiyasiga tegishli hududlarni aniqlang.

- A) Sardiniya, Sitsiliya B) Afina, Nikomediya
C) Isfahon, Kirmon D) Tuluza, Lion

14. [1,5 ball] Amir Temur kimga “Garchi sen muxolifat bo‘lib, bu nomaqbul ishga kirishgan bo‘lsang ham, qadimiy do‘stligimiz haqqi seni afv etdim”, deb aytgan?

- A) Amir Muso B) Amir Xudaydod
C) Suyurg‘atmish D) Mahmudxon

15. [1,5 ball] XVII asr o‘rtalariga kelib, Eron iqtisodiyoti uchun xavfli bo‘lgan holatlardan biri nimalarning chet el kompaniyalari tomonidan mamlakatdan olib chiqib ketilganligi edi?

- A) Metall buyumlar
B) Oltin va kumush buyumlar
C) Paxta va bug‘doy
D) Harbiy qurol-aslahalar

16. [1,5 ball] Rossiyada qachon ijtimoiy-siyosiy hayotida inqilobiy-demokratik mafkuraning shakllanish davri bo‘ldi?

- A) XVIII asrning 20-30-yillari
B) XIX asrning 30-40-yillari
C) XX asrning 50-60-yillari
D) XIX asrning 60-70-yillari

17. [1,5 ball] Mang‘itlar hukmronligi davrida o‘troq aholidan tashqari ko‘chmanchi va yarimko‘chmanchi urug‘lar ham turmush kechirganlar. Shunday urug‘lardan biri xitoylar qaysi hududlarda yashaganlar?

- A) Kattaqo‘rg‘on va Samarqandda
B) Buxoro va Karmanada
C) Nur va Keshda
D) Mirzacho‘l va Nurda

18. [1,5 ball] Mang‘itlar hukmronligi davrida qora va kulrang qorako‘l mahsulotlarini kimlar bozorga yetkazib turganlar?

- A) Qoraqalpoqlar B) Kenagaslar
C) Xitoylar D) Arablar

19. [1,5 ball] XVIII-XIX asrlarda Buxoro amirligida sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik olib borilgan yerlar qanday atalgan?

- A) Lalmi yer B) Dasht yeri
C) Yaylov yerlari D) Suvli yer

20. [1,5 ball] XVI-XVIII asrlarda Yaponiya aholisining Syo toifasiga kiruvchi qatlamni aniqlang.

- A) Savdogarlar B) Dehqonlar
C) Samuraylar D) Hunarmandlar

21. [2,6 ball] Lotin Amerikasiga dastlab ko‘chib kelgan ispan va portugallarning avlodlari ... (a), Amerikada oq tanli aholiga mansub kishilar bilan hindular o‘rtasidagi nikohdan tug‘ilgan avlod ... (b). Nuqtalar o‘rniga mos keladigan tegishli javobni belgilang.

1. mulat; 2. kreol; 3. metis; 4. peon

- A) a-1; b-3
B) a-2; b-3
C) a-3; b-2
D) a-2; b-4

22. [2,6 ball] Italiyada inqilobiy jamiyat (karbonariylar) faoliyat olib borgan yillar oralig‘ida Buxoro amirligida qurilgan tarixiy inshootni toping.

- A) Mir Bekoybiy madrasasi
B) Chorsu (Toqi musaddas)
C) Xalifa Xudoydod majmuasi
D) Chor Minor (Xalifa Niyoz madrasasi)

23. [2,6 ball] “Yelizaveta” deb atalgan paroxod paydo bo‘lgan yilda Buxoro amirligida kim hukmronlik qilayotgan edi?

- A) Amir Haydar
B) Amir Nasrullo
C) Amir Shohmurod
D) Muhammad Rahimbiy

24. [2,6 ball] Meksikaning Texas provinsiyasini AQSH qo‘shib oladi. Bu AQSH va Meksika o‘rtasidagi urushga olib keldi. Ushbu urush bo‘lib o‘tgan yillar oralig‘ida jahon tarixida sodir bo‘lgan voqeani aniqlang.

- A) Qrim urushida Rossiya mag‘lub bo‘ldi.
B) Ingliz ekspeditsiyasi tomonidan G‘arbiy Afrikaning ichkarisiga birinchi sayohat uyushtirildi.
C) Liberiya ozod davlati tuzildi.
D) Turkiyada turk tilida birinchi gazeta “Voqealar kundaligi” nashr qilina boshlandi.

25. [2,6 ball] Mamlakat ma‘muriy jihatdan viloyatlarga bo‘linib, sulton tomonidan tayinlangan voliyalar boshqargan. Ular o‘z

mahkamalariga ega bo'lib, viloyat hayoti bilan bog'liq barcha sohalarga rahbarlik qilganlar. Ushbu davlatda Bosh vazir "rais ur-ruaso" deb atalgan. Ushbu fikrlar qaysi davlatga tegishli?

- A) Saljuqiylar B) G'aznaviylar
C) Somoniylar D) Qoraxoniylar

26. [2,6 ball] Qaysi voqea Amir Temur bilan Amir Husayn o'rtasidagi eng so'nggi rishtaning uzilishiga olib kelgan?

- A) Amir Temurning Movarounnahrda Chingizxon avlodiga mansub bo'lgan Suyurg'atmishni xon qilib saylashi
B) Zinda Chashmga qarshi Joki Barlos boshchiligidagi qo'shinining jo'natilishi
C) O'ljoy Turkon Og'aning to'satdan vafot etishi
D) Bir necha yil davomida Movarounnahr taxti uchun bo'lgan kurash Amir Temur foydasiga hal bo'lganligi

27. [2,6 ball] Mashhur xattot Sultonali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan 50 ta asar bizgacha yetib kelgan. Uning faoliyati borasida Alisher Navoiy qaysi asarida ma'lumot bergan?

- A) "Tarixi anbiyo va hukamo"
B) "Tarixi mulki ajam"
C) "Badoye ul-bidoya"
D) "Majolis un-nafois"

28. [2,6 ball] Buyuk davlat arbobi Alisher Navoiyga yurtimizdan tashqari yana qaysi davlatlarda haykallar o'rnatilgan?

- A) Kanada, AQSH, Yaponiya
B) Ozarbayjon, Qozog'iston, Tojikiston
C) Xitoy, AQSH, Yaponiya
D) Rossiya, AQSH, Shimoliy Koreya

29. [2,6 ball] Quyidagi berilgan voqealardan qaysi biri boshqalarga nisbatan eng avval yuz bergan?

- A) Boltiqbo'yi yerlarida yangi shaharlar vujudga keldi.
B) Fransiyaning qator shaharlarida senyorlarga qarshi kurashlar bo'lib o'tdi.
C) Innokentiy III papaligi davrida katolik cherkovi o'z qudratining cho'qqisiga chiqdi
D) Xitoyda ilk bo'rtma iyeroglifli kitob bosmadan chiqarildi.

30. [2,6 ball] Silla qirolligiga qirol maslahatchisi lavozimiga bosh buddaviy rohib tayinlangan. Bu esa buddaviylik yo'riqnoma va ko'rsatmalarini saroy orqali tarqatishga imkon bergan. Ushbu yo'riqnoma va ko'rsatmalarni asoslab chiqarilgan besh farmoyishga oid qonun-qoidalarini toping.

1. sababsiz qon to'kilishidan saqlanish; 2. dangasa bo'lmaslik; 3. so'zlashda mulohazasiz va beparvo bo'lmaslik; 4. ota-onaga sadoqat bilan xizmat qilish; 5. har qanday tirik jonzotga ziyon-zahmat yetkazmaslik; 6. do'stlik sadoqatini o'rganish; 7. jang maydonidan chekinmaslik.

- A) 1, 3, 5, 6
B) 2, 3, 4, 6
C) 1, 4, 6, 7
D) 2, 4, 5, 7

FAN
OLIMPIADALARI
MARKAZI

